

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

4/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

4/2025

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Hayitov Sh.A., Davronova M.S.	“Arba’in”navislikning shakllanish omillari haqida	4
Safarova Z.T., Ergasheva G.O.	X.To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” asarida bosh qahramon vahimasini ifodalashda yozuvchi uslubi	9
Choriyev J.A.	Ingliz va o‘zbek asarlaridagi zoomorfik metaforalar xususida (ingliz adabiyotidan vilyam shekspir asarlari asosida)	13
Ismatova M.T.	Jadid she’riyatida ramziylik: an’ana va ijodiylik	19
Akhmedova M.B., Nizomova A.U.	The dynamics of childhood representation in 20th and early 21st-century english drama	25
Бўриева Р.О., Шофиев О.Б.	Л.Н.Толстой асарларида болалик образи талқини (“Болалик. Ёшлик. Ўспиринлик” қиссаси мисолида)	30
Хакимова Х.Р.	Классификация глосс религиозной тематики в исторических романах М.И.Шеввердина	35
Maxsumov M.M.	Alisher Navoiyning “G‘aroyib us sig‘ar” devonida nafsning obraz sifatidagi badiiy tasviri	39
Abdullayeva N.B.	A. Tolstoy va E. Zamyatin asarlaridagi fantastik obrazlar	44
Elmanova M.T.	The problem of social inequality in the novel «The sacrifice»	50
Qurbonova N.R., Ikromova N.I.	Ted Xyuz she’rlarining o‘ziga xos poetik xususiyatlari	54
Jumayeva N.G‘., Iskandarova M.A.	Allan Edgar Po hikoyalarida gotik mavzularning aks etishi	59
Muhammadiyev A.M.	Muhyi va unga zamondosh shoirlar ijodida adabiy ta’sir masalasi	63
Safarova Z.T., Niyazova D.J.	“Da Vinchi siri” asarida detektiv janri xususiyatlari ifodasi	69
Ochilova M.Sh.	Alisher Navoiy she’riyatida sabrning badiiy tahlili	73
Jalilova L.J., Oromova M.S.	Stages of the development of children's literature: the formation of a fantastic discourse	77
Qurbonova N.R., Sharipova K.U.	The distinctive features of Mary Poppins by Pamela Lyndon Travers	85

“DA VINCHI SIRI” ASARIDA DETEKTIV JANRI XUSUSIYATLARI IFODASI

Safarova Zilola Tolibovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti
Niyazova Dilnoza Jo'rayevna,
Buxoro davlat universiteti magistranti
d.j.niyazova@buxdu.uz

Annotatsiya: Den Braunning “Da Vinchi siri” romani detektiv janrining ko‘plab xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan. Asar sirli qotillik, murakkab kodlar va tarixiy jumboqlar orqali o‘quvchini voqealar rivojiga jalb etadi. Professor Robert Langdon va Sofi Neve Luvr muzeyida sodir bo‘lgan qotillikni tergov qilish jarayonida turli kodlarni yechish va tarixiy haqiqatlarni ochishga harakat qilishadi. Bu jarayon davomida ular Leonardo da Vinchi asarlari va boshqa tarixiy manbalar bilan bog‘liq sirlarni fosh etishadi. Asarda detektiv janriga xos bo‘lgan sirli voqealar, mantiqiy tahlil va qahramonlarning ichki kurashlari kabi elementlar mavjud bo‘lib, ular o‘quvchining qiziqishini oshiradi.

Kalit so‘zlar: detektiv janr, sirli qotillik, kodlar, tarixiy jumboqlar, Leonardo da Vinchi, Luvr muzeyi, mantiqiy tahlil, ichki kurashlar.

THE EXPRESSION OF DETECTIVE GENRE CHARACTERISTICS IN THE WORK "DA VINCI CODE"

Abstract. Dan Brown's novel “The Da Vinci Code” embodies many characteristics of the detective genre. The work engages readers through a mysterious murder, complex codes, and historical puzzles. Professor Robert Langdon and Sophie Neveu investigate a murder in the Louvre, attempting to decipher various ciphers and uncover historical truths. In the process, they unveil secrets related to Leonardo da Vinci's works and other historical sources. The novel features elements typical of the detective genre, such as enigmatic events, logical analysis, and internal character conflicts, which enhance reader interest.

Keywords: detective genre, mysterious murder, codes, historical puzzles, Leonardo da Vinci, Louvre Museum, logical analysis, internal conflicts.

ВЫРАЖЕНИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ДЕТЕКТИВНОГО ЖАНРА В ПРОИЗВЕДЕНИИ «КОД ДА ВИНЧИ»

Аннотация: Роман Дэна Брауна “Код да Винчи” воплощает в себе многие черты детективного жанра. Произведение привлекает читателя через загадочное убийство, сложные коды и исторические головоломки. Профессор Роберт Лэнгдон и Софи Невё расследуют убийство в Лувре, пытаясь разгадать различные шифры и раскрыть исторические истины. В процессе они раскрывают тайны, связанные с произведениями Леонардо да Винчи и другими историческими источниками. В романе присутствуют такие элементы, характерные для детективного жанра, как загадочные события, логический анализ и внутренние конфликты персонажей, что усиливает интерес читателя.

Ключевые слова: детективный жанр, загадочное убийство, коды, исторические головоломки, Леонардо да Винчи, Лувр, логический анализ, внутренние конфликты.

Den Braun ijodida “Da Vinchi siri” romani detektiv janrda yozilgan asarlar qatorida alohida ahamiyatga ega. Mazkur asar detektiv janrining xususiyatlarini qamrab olgan, murakkab hikoya tuzilishi va qiziqarli qahramonlar bilan boyitilgan romanlardan biri sanaladi. Bu asarda detektiv janriga xos bo‘lgan bir qancha elementlar mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarga sirli hodisalar va qiziqarli izlanishlar orqali hikoyaning dinamikasini oshirishga yordam beradi.

John Giannini o‘zining “The Sacred Secret: The Real Mystery in “The Da Vinci Code” maqolasida ushbu roman tadqiqidan maqsadi “Da Vinchi siri” asarining muvaffaqiyati sabab bo‘lganini qayd etadi. Muallif tabiiyki roman muvaffaqiyatining sababi bilan qiziqib, batafsil tadqiq va tahlil qilishga kirishadi. Romanda voqelantirilgan sirli hikoya ortida, albatta, qandaydir sir yashiringanday tuyulgani sabab, adabiyotshunos ushbu murakkab, tezkor sur‘atdagi asarda ketma-ket kelayotgan qotilliklardan ko‘ra, haqiqiy sir – nima uchun aynan shu kitob bestsellerga aylanib, deyarli o‘ziga xos bir kult kabi izdoshlarga ega bo‘lganini o‘rganadi.

Mazkur maqolada biz asarda aks etgan detektiv janri elementlarini tahlil qilishga harakat qilamiz hamda fikrlarimizni romandan keltirilgan parchalar bilan asoslashga urinamiz.

“Da Vinchi siri” romani qotillik hodisasi bilan boshlanadi. Qahramonlar, professor Robert Langdon va Sofi Neve, Luvr muzeyida qotil tomonidan qoldirilgan sirli kodlar va belgilar orqali jinoyatni ochishga harakat qiladilar. Bu sirli qotillik asar davomida o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularni voqealar rivoji bilan bog‘lab turadi. Qotilning o‘ziga xos usuli va qoldirilgan kodlar, detektiv janrning klassik elementlaridan biri bo‘lgan muammolarni yechish jarayonini namoyish etadi. Asarning dastlabki satrlaridanoq kitobxonni turli savollar chulg‘ab oladi. Asar qahramoni Robert Lengdonning qo‘liga politsiya xodimi shubhali suratni tutqazishi bilan, qahramon qalbidan kechgan turli o‘y-xayollar hamda gumonlar kitobxonni ham o‘z domiga tortadi:

Langdon stared at the picture; his horror now laced with fear. The image was gruesome and profoundly strange, bringing with it an unsettling sense of déjà vu. A little over a year ago, Langdon had received a photograph of a corpse and a similar request for help. Twenty-four hours later, he had almost lost his life inside Vatican City. This photo was entirely different, and yet something about the scenario felt disquietingly familiar.[1.18]

Ushbu parchadan yozuvchining shubha va gumon uyg‘otishdagi mahorati ko‘zga tashlanadi. Xuddi shunday real tasvirlar asar voqealari rivoji davomida o‘zib boraveradi. Den Braunning “Da Vinchi siri” romani, sirli qotillik va muammolar bilan to‘la bo‘lib, o‘quvchilarni hikoyaga jalb qilish uchun kuchli asosni ta‘minlaydi. Asar o‘zida muhim qiyinchiliklarni, mantiqiy izlanishlarni va qahramonlarning ichki kurashlarini aks ettiradi, bu esa detektiv janriga xos bo‘lgan eng qiziqarli elementlardan biridir.

Detektiv janrda yaratilgan asarlarning eng muhim xususiyatlaridan biri bu unda sirli qotillikning aks etishidir. Bunday romanlarda muallif tasvirni qotillik bilan boshlab, unda uchlik, ya‘ni qotil-murda-detektiv orasidagi munosatlar vositasida voqealar rivojlantirib boradi. “Da Vinchi siri” romanida ham xuddi shu elementning guvohi bo‘lish mumkin.

Roman voqealari Parijdagi Luvr muzeyida boshlanadi, bu yerda muzeyning rahbari Jacques Saunière qotil tomonidan o‘ldiriladi. Uning jasadi g‘ayrioddiy holatda, xususan, rasmiy asarlarning yonida joylashgan va ko‘plab sirli belgilar bilan o‘ralgan holda topiladi. Saunière o‘zining so‘nggi daqiqalarida qoldirgan qizil va qora ranglardagi belgilar, shuningdek, uning nevarasiga atalgan kodli xabarlar o‘quvchining qiziqishini yanada oshiradi. Bu o‘rinda muallif juda murakkab, kodlangan va simbolik bo‘lgan xabarlar tasvirini yaratadi. Bu muammoni yechish uchun qahramonlar Robert Lengdon va Sofi Neve, zamonaviy tarixiy bilimlari va san‘at tarixidan foydalanishga majbur bo‘ladilar.

Romanning dastlabki sahifalaridanoq boshlangan qotillik sahnasi kitobxonni asabi taranglashishga majbur qilsa, qahramonning sirli harakatlari uning qiziqishini yanada oshiradi:

“He was trapped inside the Grand Gallery, and there existed only one person on earth to whom he could pass the torch. Saunière gazed up at the walls of his opulent prison. A collection of the world's most famous paintings seemed to smile down on him like old friends”.[1.14]

Ushbu parcha o‘lim sahnasida qahramonning vahimali, ammo g‘urur aralash his-tuyg‘ularini aks ettiradi. U o‘z bilimlarini faqat bitta insonga topshirishi mumkinligini biladi va dunyoning eng mashhur san‘at asarlari, unga tasalli berayotgandek, qarab turadi. Jonlantirish usuli orqali qahramonning muzeyga bo‘lgan muhabbati, kasbiga sodiqligi, mas‘uliyati namoyon bo‘lsa, muhim sirni davom ettirishga bo‘lgan ishtiyoqi bevosita kitobxonni qanday sir ekaniga qiziqtirib qo‘yadi.

Tabiiyki, romanning keyingi bosqichida Den Braun belgilar va kodlarning mazmunini anglash, ochilish jarayoni tasviriga o‘tadi. Saunière qoldirgan belgilarning sirini ochish jarayoni, roman davomida o‘ta muhim ahamiyatga ega. Adib uslubining yana bir o‘ziga xos jihati tarixiy shaxslar va manbalardan mohirona foydalanishdir. Masalan, Saunière jasadi yonidagi “Pyramid of the Louvre” haqidagi belgilar va “Da Vinchi” bilan bog‘liq ma‘lumotlar, qahramonlar uchun yangi yo‘l ochadi. Ushbu belgilar orqali ular o‘z tarixi va san‘ati bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan qiyinchiliklarni yechishga harakat qiladilar. Yozuvchining qahramonlari, bu belgilarni yechish orqali tarixiy va ilmiy haqiqatlarga yaqinlashadilar, bu esa o‘quvchilarni qiziqarli va sirli voqealar bilan bog‘laydi.

“The pentacle. The bloody star, centered on Saunière's navel, gave his corpse a distinctly ghoulish aura. The photo Langdon had seen was chilling enough, but now, witnessing the scene in person, Langdon felt a deepening uneasiness”.[1.42]

Ushbu parcha pentagramma va insoniyatning sirli ramzlarga bo‘lgan ehtiyojini ko‘rsatadi. Yulduzning Saunière qornida, aynan kindik markazida joylashuvi unga qorong‘u va mistik ruh bag‘ishlab, uni shunchaki qotillik sahnasidan uzoqroqqa olib chiqadi. Lengdonning fotosuratdagi tasvirdan ko‘ra, voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘rishi unda yanada kuchli bezovtalikni uyg‘otadi va o‘quvchiga sahnaning jonli, dahshatli jihatlarini yaqinlashtiradi. Ushbu ramz qadimiy sirlarni, ilohiy bilim va g‘ayritabiiy haqiqatlarni anglatib, o‘quvchida

o'ziga tortuvchi, lekin tashvishlantiruvchi ta'sir uyg'otadi. Bu o'quvchining qiziqishini o'stiradi va pentagramma ortidagi sirni anglashga bo'lgan intilish bilan hikoyaga yanada chuqurroq singdiradi.

Den Braun "Da Vinchi siri" romanida tarixiy kontekst tasviriga ham alohida e'tibor qaratadi. Qotillik o'zi oddiy jinoyat emas, balki kuchli tarixiy mazmunga ega. Bu voqealar Luvr muzeyidagi eng mashhur san'at asarlariga ta'sir qiladi va ularning o'rtasida aloqadorlik mavjud. Masalan, asar davomida Leonardo da Vinchining "Mona Liza" asariga ishora qilinadi. Bu san'at asari qahramonlar tomonidan o'rganiladi va Saunière qoldirgan sirlarni ochishga yordam beradi. Tarixiy kontekst, o'quvchilarni nafaqat muammolarni yechishga, balki san'at va tarixga qiziqish uyg'otishga ham undaydi. Dan Braunning "Da Vinchi siri" romanida jinoyat va qahramonlar tasviri o'zaro bog'liq bo'lib, voqealarning rivojini ta'minlaydi. Asar, eng avvalo, sirli qotillik orqali boshlanadi, bu esa qahramonlar, professor Robert Lengdon va Sofi Neve, o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va o'zgarishlarga olib keladi.

Asar voqealari Parijdagi Luvr muzeyida sodir bo'ladi, bu yerda muzeyning rahbari Jacques Saunière sirli sharoitda o'ldiriladi. Saunière o'zining so'nggi daqiqalarida, o'zini himoya qilish va muhim ma'lumotlarni yashirish uchun kodlangan belgilardan foydalanadi. Qotillik o'zi oddiy jinoyat emas, balki asarda o'zining tarixiy va madaniy ahamiyatiga ega. U qahramonlar va o'quvchilar uchun muammolarni yechish jarayonini boshlaydi. Saunière qoldirgan shifrlangan belgilar va kodlar, qahramonlarni tarixiy san'at asarlariga va ulardagi sirli hodisalarga qiziqishlarini orttiradi. Bu jinoyat, nafaqat qotilni topish, balki tarixiy va madaniy haqiqatlarni kashf etish jarayonini ham o'z ichiga oladi. "Da Vinchi siri" romanida jinoyatni yechish jarayoni ham asosiy jihatlardan biri sanalib, qahramonlar jinoyatni yechish jarayonida, bir qator murakkab va qiyin vaziyatlarga duch kelishadi. Har bir yangi ma'lumot, kod yoki belgi, ularga yana bir qadam oldinga borishga yordam beradi. Masalan, ular Da Vinchining san'at asarlaridan foydalangan holda, qotilning haqiqiy niyatini tushunishga harakat qilishadi. Bu jarayon, qahramonlarning ichki o'zgarishlariga olib keladi, chunki ular birgalikda qiyinchiliklarni yengib, o'z bilimlarini sinab ko'rishadi.

Lengdon va Sofi o'rtasidagi aloqalar, jinoyatni yechishda muhim rol o'ynaydi. Ular bir-birlariga yordam berib, har bir qiyinchilikdan o'tishadi. Ularning o'zaro munosabatlari, asarning hissiy va ruhiy qirralarini kengaytiradi, bu esa o'quvchilarni voqealarga yanada chuqurroq jalb etadi.

Den Braunning "Da Vinchi siri" romanidagi jinoyat va qahramonlar tasviri, o'quvchilarga qiziqarli va hayajonli rivoya taqdim etadi. Jinoyat, nafaqat qotilni topish, balki qahramonlarning shaxsiy o'zgarishlari va tarixiy bilimlarini kashf etishga olib keladi. Qahramonlar, qiyinchiliklarni yengib, ichki kurashlarini o'tkazib, o'z bilimlari va tajribalarini birlashtirib, o'zlariga va o'quvchilarga hayotiy saboqlarni taklif etadilar. Asar, detektiv janrning xususiyatlarini o'zida mujassam etgan holda, sirlar va qiyinchiliklar orqali o'quvchilarga bilim, tajriba va o'sish imkoniyatini beradi. Qotillikning o'zi va unga bog'liq bo'lgan kodlar, tarixiy faktlar va qahramonlar o'rtasidagi aloqalar, asarni yanada qiziqarli qiladi. Bu sirlar va muammolar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini sinovdan o'tkazadi, ularni o'z bilimlarini kengaytirishga undaydi va o'tkazilgan voqealar davomida hissiy bog'lanishni ta'minlaydi. Den Braunning uslubi, detektiv janrining asosiy xususiyatlarini muvaffaqiyatli tarzda aks ettirib, o'quvchilarga ulkan sirli dunyoga kirish imkoniyatini beradi.

"Da Vinchi siri" romanida detektiv janridagi muvaffaqiyatlaridan biri bu unda ifodalangan tarixiy san'at va madaniyatdir. Roman Parijdagi Luvr muzeyida sodir bo'lib, bu joy san'at va madaniyatning markazlaridan biridir. Luvrda joylashgan asarlar, jumladan, Leonardo da Vinchining "Mona Liza" va boshqa mashhur san'at asarlarini o'z ichiga oladi. Asarda Da Vinchi haqida keltiriladigan ma'lumotlar, uning san'atiga, ilmiy izlanishlariga va falsafiy qarashlariga alohida ahamiyat beriladi. Bu, qahramonlar tomonidan o'rganiladigan kodlar va belgilar orqali o'ta muhim kontekstga aylanishi, ularning izlanishlari va qotillikni ochish jarayonida yordam beradi.

Qizig'i shundaki, qotillik qurboniga aylangan Saunière Luvr muzeyida bir necha yil xizmat qilgan insonlardan biri bo'lib, asar muqaddimasida u o'limidan oldin sirni o'zidan keying avlodga yetkazishi shartligi, bir kishi faqat buni uddalashi mumkinligi aytiladi. Sofi uning nevarasi va marhum aynan Sofi buni uddalashi mumkinligi roman o'rtalariga kelib ayonlashadi. Sofi bunday murakkab jumboq oldida gangib turganida, yozuvchi o'sha Luvr muzeyidagi mashhur "Mona Liza" portreti oldida ancha yillar oldin Sofi va bobosi o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatni keltirish orqali ushbu aloqadorlikni oydinlashtiradi:

"So what do you think?" her grandfather whispered, arriving behind her. "Beautiful, yes?"

"She's too little."

Saunière smiled. "You're little and you're beautiful."

"I am not beautiful, she thought. Sophie hated her red hair and freckles, and she was bigger than all the boys in her class. She looked back at the Mona Lisa and shook her head. "She's even worse than in the books. Her face is . . . brumeux." "Foggy," her grandfather tutored.

"Foggy," Sophie repeated, knowing the conversation would not continue until she repeated her new vocabulary word.

"That's called the sfumato style of painting," he told her, "And it's very hard to do. Leonardo da Vinci was better at it than anyone."

Sophie still didn't like the painting. "She looks like she knows something . . . like when kids at school have a secret.""]

Bu parcha Sofi va bobosi o'rtasidagi munosabat va uning san'at haqidagi hissiyotlarini ochib beradi. Sofi Mona Lizani yoqtirmaydi, asar unga notanish, "tumanli" va hatto biroz noqulay tuyuladi. Uning bu tasvirdan ta'sirlanmasligi bolalikda o'ziga bo'lgan ishonchsizlik bilan bog'liq: Sofi o'zining qizil sochlari va sekillari tufayli go'zallikdan yiroqdek his qiladi. Shuningdek, u o'zidan kichikroq, ammo go'zal sanaladigan Mona Liza bilan o'zini solishtirib, o'zini noqulay sezadi.

Xulosa qilib aytganda, bu voqealar va shaxslar, Saunière o'ldirilganida qoldirgan shifrlangan xabarlar orqali o'rganiladi. Tarixiy kontekst, qahramonlarga o'z maqsadlariga erishishda yordam beradi. Ular tarixi murakkab, ammo shuningdek, jozibali va o'rganilishi kerak bo'lgan tarixiy haqiqatlar bilan to'ldirilgan voqealar zanjirini ochishga harakat qilishadi. Detektiv janrning muhim xususiyatlaridan biri – muammolarni yechish jarayoni. Asarda qahramonlar o'z maqsadlariga erishish uchun mantiqiy fikrlash, tajriba va intellektual qobiliyatlarni qo'llaydilar. Ular qoldirilgan kodlarni yechish, tarixiy faktlarni tahlil qilish va sirli belgilarni tushunish orqali qiyin vaziyatlardan o'tadilar. Bu jarayon o'quvchilarni voqealar rivoji bilan bog'lashga va ularning aqliy qobiliyatlarini sinab ko'rishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Dan Brown. *The Da Vinci Code*. Robert Langdon. Knopf Doubleday Publishing Group, 2003. – 465 p.
2. Giannini, John. *The Sacred Secret: The Real Mystery in The Da Vinci Code*. // *Jung Journal: Culture & Psyche*, Vol. 2, No. 2, 2008. // pp. 63-84
3. *MYSTERY LIES IN DAN BROWN'S THE DA VINCI CODE* Dr.N.Asharudeen, Assistant Professor, G.Nilanandhini, Research Scholar, Department of English Edayathangudy G.S. Pillay Arts & Science College Nagapattinam
4. Leitch, Thomas M. *From Detective Story to Detective Novel*. // *Modern Fiction Studies*, 1983, Vol. 29, No.3, pp. 475-484.
5. Z.T.Safarova, D.J. Niyazova. *Den Braun asarlarida detektiv janr xususiyatlarining namoyon bo'lishi*. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2024. 2– son issn: 2181-0427